

YANGI O‘ZBEK NASRIDA KINOYANING BADIY TALQINI

Barchin SHUKUROVA *

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy tahlilning eng muhim unsurlaridan kinoyaning badiiy asardagi o‘rni va ahamiyati yoritildi. Obekt sifatida Luqmon Bo‘rixonning “Begimqul katta” va “Cho‘ldan kelgan tashvish” hikoyalari, “Quyosh hali botmagan” qissasi va “Jaziramadagi odamlar” romani olindi. “Begimqul katta” hikoyasi qahramoni Begimqul Xurramovich sho‘ro davrida Kattaning soyasida kattaga aylangan, muallimlikni tashlab, agitator bo‘lgan zamonasoz odam obrazidir. Aslida, o‘zbek nasrida zamonasoz odamlar obrazi juda ko‘p yaratilgan. Masalan, E.A‘zam, A.A‘zam, Sh.Bo‘tayev nasrida Begimqul Xurramovichga o‘xshagan zamonasoz odamlar obrazi mahorat bilan yaratilgan. Biz ushbu tadqiqotda yuqoridagi adiblardan farqli ravishda muallifning o‘ziga xos luqmonona kinoyaviy badiiy uslubni o‘zida namoyon etganini yoritdek. Adib nasrida kinoya bora-bora etik va estetik idealni ifodalash uchun muhim badiiy vositaga aylandi “Cho‘ldan kelgan tashvish” hikoyasida Luqmon Bo‘rixonning kinoyaviy estetik idealini ko‘rsatib berishga harakat qildik. Luqmon Bo‘rixon “Quyosh hali botmagan” qissada voqelik va insonning ruhiy tovlanishlarini tanqidiy, tahliliy taftish qilish uchun kinoya va uning vositalaridan unumli foydalanilganligi o‘rganildi. “Jaziramadagi odamlar” romanida kinoya va uni namoyon etuvchi badiiy vositalar aks etishi, alalxusus luqmonona kinoya katta etik va estetik idealga evrilishi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Luqmon Bo‘rixon, kinoya, obraz, ideal

From Azerbaijani Karabakh to Konya Karabakh: Holiness in the Context of Public Diplomacy

Abstract: In this article, the role and significance of irony in fiction from the most important elements of artistic analysis was highlighted. As an object, the stories “Begimqul big” and “anxiety from the desert” by Luqman Boukhon, the story “The Sun has not yet set” and the novel “people in the Heat” were taken. The hero of the story “Begimqul senior” Begimqul Khurramovich is the image of a modern man who, in the days of Shiro, became an adult in the Shadow of an adult, abandoned teaching and became an agitator. In fact, in Uzbek prose, the image of modern people is created a lot. For Example, E.Azam, A.Azam, Sh.Bo the image of modern people like Begimkul Khurramovich was skillfully created in the prose of tayev. We find in this study that, in contrast to the above etibs, it is as if illuminating that the author has manifested himself in a kind of logically ironic artistic style. In the prose of Adib, sarcasm became an important artistic tool for expressing the ethical and aesthetic ideal of Bora-bora in the story “concern from the desert”, we tried to show the ironic aesthetic ideal of the Luqmon Bourkhon. In the story “The Sun has not yet set”, Luqman Borihon studied the fact that he used irony and its means most efficiently to critically, analytically interpret reality and human mental extortion. The novel “people in the heat” analyzed the reflection of irony and the artistic means that manifest it, the evolution of alalxusus luqmonona irony into a great ethical and aesthetic ideal.

Key Words: International relations, Public diplomacy, Kinship, Descendancy.

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo adabiyotshunosligida kinoya va uning badiiy vositalari olimlar tomonidan jiddiy o‘rganilmoqda. [Pivayev, 1982: 59; Kononenko, 1982; 114. Boryev, 1997: 187]. Kinoyaviy badiiy modusda ijod qilish, ayniqsa, XX asr dunyo adabiyotida asosiy uslubga aylandi. Ijodkorlar insoniyat va jamiyat hayotini kinoyaviy nigoh bilan kuzatib, ana shunday asarlar yozishga jazm etishdi. Jumladan, rus yozuvchisi M.Bulgakovning “Usta va Margarita”, “Ityurak”, yahudiy yozuvchisi Sevela Efraimning “Samolyotni to‘xtating, tushib qolaman” kabi asarlarida kinoya, istehzo, kesatq, ramz, ko‘povozlilik, magik realizm, fantasmagariya unsurlaridan mahorat bilan foydalanilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida ham kinoya va uning ko‘rinishlari, badiiy xususiyatlari yosh tadqiqotchilar tomonidan dissertatsiya ishlarida tadqiq etildi. [Sheraliyeva, 2016: 224; Shofiev, 2019: 172; Qo‘chqorova, 2020: 248] O‘zbek adabiyotida Murod Muhammad Do‘st, Erkin A‘zam, Ahmad A‘zam, Shoyim Bo‘tayev, Luqmon Bo‘rixon nasrida kinoyaning o‘ziga xos ko‘rinishlari uchraydi. Biz ushbu faslda Luqmon Bo‘rixon hamda Qo‘chqor Norqobil asarlaridagi kinoyaviy estetik idealni qidiramiz.

* O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, PhD, E-mail:barchinsamadovna@gmail.com

1. Asosiy qism

Luqmon Bo‘rixonning “Begimqul katta” hikoyasida ham kinoya, istehzo, hajv unsurlari bilan sho‘ro davrining ajabtovur shaxslar obrazi mahorat bilan ochilgan. [Mahmudov, 2017: 30-32] Mazkur hikoya haqida Y.Mahmudov shunday yozadi: “Badiiy obraz yaratishda Luqmon Bo‘rixon uslubini zamonaviy o‘zbek adabiyotida yangicha yondashuv deya atash mumkin. Adib hikoyadek kichik janrda obrazlarni xarakter darajasiga ko‘tara oladi.

Yozuvchining “Begimqul katta” hikoyasi bosh qahramoni Begimqul Xurramovich ana shunday takomilga yetgan obrazlardan”. [Mahmudov, 2017: 38-39] Haqiqatan ham, Begimqul Xurramovich sho‘ro davrida Kattaning soyasida kattaga aylangan, muallimlikni tashlab, agitator bo‘lgan zamonasoz odam obrazidir. Aslida, o‘zbek nasrida zamonasoz odamlar obrazi juda ko‘p yaratilgan. Masalan, E.A‘zam, A.A‘zam, Sh.Bo‘tayev nasrida Begimqul Xurramovichga o‘xshagan zamonasoz odamlar obrazi mahorat bilan yaratilgan.

Mazkur hikoya 1986-yilda yozilgan. Hikoya yaratilganiga o‘ttiz olti yil bo‘libdi. Asar mutolaasidan so‘ng yozuvchi o‘tgan asrning 80-yillarida katta ijtimoiy illat, kishi tabiatiga xos rahbarparastlik, ikkiyuzlamachilikni kinoyaviy ohang bilan fosh etadi. O‘zini “kichkina odam” deb hisoblovchi Begimqul Xurramovich o‘qituvchilik kasbini tashlab, raisning o‘ng qo‘liga aylanadi. Rais bovaning gapiradigan siyosiy nutqlarini yozib beradi. Har kuni mototsikliga minib, kolxozchilarning siyosiy ongini oshirish uchun nutq irod qiladi. Begimqulni kinoya bilan kolxozchilar ismiga “katta” so‘zini qo‘shib aytishadi. Aslida, sarlavhaga chiqarilgan “Begimqul katta” nomidanoq kinoyaning hidi kelib turibdi. Hikoyaning boshidan oxirigacha qahramonning laqablari o‘zgarib, yozuvchining qahramon va davrga nisbatan kinoyaviy pozitsiyasi namoyon bo‘lgan. Jumladan, qahramonning ismi “Begimqul malim”, “Begimqul katta”, “Begimqul agitator”, “o‘rtoq To‘qliyep”, “Begim Xurramovich” tarzida besh xil nomlanadi. Bu nomlarning barchasida yozuvchining kinoyaviy estetik ideali bo‘rtib turibdi. Adib hikoyada Begimqul agitatorning sovet kolxozchisiga o‘qiyotgan nutqi orqali o‘sha davrda yashagan, shu tipdagi ideologik siyosiy tashviqotchilar, ya‘ni agitatorlarning asl qiyofasini ochib bergan. Masalan, qahramon nutqidan parcha keltiramiz: “Da-da, olamda gap ko‘p, o‘rtoqlar, – deb gap boshladi savol takrorlangach, – Amerika enag‘ar Yevropaga raketa o‘rnatyapti, olamda sovsem slojniy obstanovka. Gazetalarni muntazam o‘qib boringlar. O‘ylaymanki, hammangizning uylaringizda televizor bor. Qarab borish kerak har mahal. Sovet kolxozchisi degani hamma narsadan xabardor bo‘lishi kerak-da. Yaqinda rayon aktivining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Kolxozdan rais bova i men vakil bo‘lib bordik. Unda rais bova so‘z olib, sizlarni rosa maqtadi. “Bizning kolxozchilar... Tois, bir minut, – Begimqul yon daftarchasini chiqarib, “rais bova”ning so‘zlarini kavlay boshladi. – Xo‘-o‘-o‘sh, vot mana: “Bizning kolxozchilar ham ijtimoiy mehnat qiladi, ham o‘zlarining siyosiy, moddiy va ma‘naviy bilimlarini oshirib, dalalarda javlon uradi”, dedilar. Ana gap-u mana gap:

Begimqul agitator kolxozchilarga g‘olibona nazar tashladi.

Hamma boshini quyi solganini ko‘rib, istehzoli iljaydi:

– Da-da, tushunmaysizlar. Quloq solinglar, bu yerda rais bova siz azamatlarni maqtayapti, sizlarni boshqa kolxozchilardan ustun qo‘yyapti. Sizlar esa... noshukurlik qilib ishdan bo‘yin tovlayapsizlar!” [Bo‘rixon, 2012: 100-101]

Begimqul kattaning yuqoridagi nutqida ruscha so‘zlar aralash holda ishlatilar ekan, bu bilan yozuvchi sho‘ro davri rahbar xodimlarining xarakterini ko‘rsatadi. U har bir so‘zida rais bovaning so‘zlarini ta‘kidlab, undan iqtiboslar keltiradi. Go‘yo shu bilan nutqini ulug‘vor qilib ko‘rsatadi. Sovet kolxozchilarini “mehnat fronti”da javlon urishga chaqiradi. Hikoyada Begimqul kattaning “pat-pat”lab yuradigan mototsikli rais tomonidan o‘ziga mos “xo‘tik” deyilar ekan, asardagi achchiq kinoya yanada ortadi. Begimqul davr va zamonning nag‘malariga o‘ynagan, xohlagan paytda qiyofasini o‘zgartiruvchi niqobli shaxs hamdir. Kinoyaviy asarda qahramonning qavatma-qavat niqoblari turli xil vaziyat va voqealar fonida ochib tashlanadi. Luqmon Bo‘rixon mazkur asarda niqoblangan shaxs fojiasini katta mahorat

bilan yoritib bergan. Begimqul mehnatkash qora xalq oldida o'zining ulardan siyosiy ongi balandligini isbotlashga urinadi. Masalan: "... birinchidan, meni Begimqulboy deb atamang, sovet jamiyatida "qul", "boy" degan tabaqalanish yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Bu siyosiy xato, o'rtoq kolxozchi, siyosiy xato. Birorta tekshiruvchi kelsa, odamni sharmanda qilasiz-ku bunaqada. Sizdagi bu mafkuraviy savodsizlik uchun meni sudga berishadi-ku, meni! Begim deng. Begim Xurramovich desangiz ham asakangiz ketmaydi. Xudoga shukur, el nazaridagi odammiz" [Bo'rixon, 2012: 100-101].

Yangi o'zbek nasrining yana bir iste'dodli yozuvchisi Luqmon Bo'rixonning hikoya, qissa va romanlarida ham milliy Qashqadaryo xarakteri yorqin tasvirlanadi. Muallifning "Quyosh hali botmagan" qissalar va hikoyalar to'plamiga adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev "Badiiy kamolot yo'li" nomli so'zboshi yozgan. Unda olim muallif portretini shunday chizadi: "... bo'yi o'rtadan pastroq, ammo xuddi kurashchi polvonlar kabi yelkador, taroqqa bo'y bermas sochlari tikraygan, turqi-tarovatidan sahroning bolasi ekani shundoqqina bilinib turgan qoracha yigitni Alisher menga tanishtirdi: yozuvchi Luqmon Bo'rixon! Yozuvchimizning tabiat zeb berishga unchalik ham hafsala qilmagan dag'algina yuzidagi katta-katta, xayolchan ko'zlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi" [Bo'rixon, 2015: 3]. Olim yozuvchini "sahro"ning odami ekanligiga urg'u beradi.

Darhaqiqat, Luqmon Bo'rixon ijodida cho'lquvarlar, cho'l odamlari qalamga olinadiki, kitobxon kulib-kulib o'qiydigan adabiy qahramonlar, ularning qashqadaryo milliy xarakteri va o'ziga xos nutqi e'tiborni tortmay qolmaydi. Luqmon Bo'rixon allaqachon shaharlik, biroq u o'z asarlari qahramonlarini hali-hanuz xalqona tilda gapirtiradi. Uning qahramonlari nutqida "gapning tagiga gap qo'yib gapiradigan" nimkosali qashqadaryo kinoya, shumlik, qitmirlik bor bo'y-basti bilan aks etadi.

Yozuvchi o'zining munofiq qahramonlarini ruhiy kechinmalar girdobiga tashlar ekan, ularni o'z-o'ziga ko'zgu tutadi. Luqmon Bo'rixonning kinoyasi bilan yaratilgan janob Do'lanov obrazi kitobxonda Olim emas, Odam bo'lish muhim ekanligini bot-bot uqtiradi. "Darhaqiqat, bu dunyoda yozuvchining zimmasida odamlarga ko'ngilxushlik baxsh etishdan boshqa biror vazifasi bo'lsa, bu vazifa shundan iboratki, u xarakter yaratib, odamlarni o'ylash va his qilishga majbur qilishdir" [Golsuorsi, 2010: 95], degan edi ingliz adibi Jon Golsuorsi. Yozuvchi Luqmon Bo'rixon "Janob Do'lanov" (muallif idealiga zid qahramon – B.Sh) orqali uning qiyofasida yashayotgan qancha-qancha odamlarni o'z hayotlari haqida o'ylashga majbur qiladigan chin ma'nodagi xarakter yaratdi.

"Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasida janob Do'lanov va "agronom-shoir" Ulash o'rtasidagi telefon suhbat, undan so'ng katta olim Do'lanov ruhiyatida ro'y bergan kechinmalar asosiy mavzu qilib olingan. "Janob Do'lanov" tirik murdaning naqd o'zi. Hikoyada qalamga olingan qahramonlar, aslida, o'ta hayotiy. Ular Luqmon Bo'rixon shaxsan o'zi ko'p bora kuzatgan, jiddiy o'rgangan odamlarning tabiiy tasviri. Luqmon Bo'rixon badiiy mahoratining siri ham shunda, aslida. Adib yaratgan qahramonlar hayotda mavjud siz-u biz bilgan zamondosh kishilar. Luqmon Bo'rixonning jaydari, xalqchil, shum, qitmir tabiatli qahramonlari Qashqadaryo odamlarining o'ziga xos milliy xarakterini namoyon etadi. Luqmon Bo'rixon "Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasi qahramonining yana bir qirrasiga urg'u berish orqali Do'lanovning insonlarni o'zicha toifaga ajratishini quyidagicha ochiqleydi: "Samad o'zini muborakbod etgani kelgan, yuqori idoralardan birining mas'ul xodimi sanalmish do'stini izzat-ikrom bilan kuzatib qo'yib, iziga qaytadi" [Bo'rixon, 2015: 288]. Biroq hamqishlog'i, jaydari yigit Ulashni telefonda bo'lsa ham, uyga keling, deyishga tili aylanmaydi. Muallif Do'lanovning ichki ruhiy kechinmalarini tasvirlash orqali o'zbek xalqining mehmondo'stlik fazilatiga teskari ravishda "Boy – boyga boqar, soy – soyga oqar" maqolini o'ziga hayotiy a'mol qilib olgan, milliy zamindan uzilgan qahramonning munofiq qiyofasini yoritadi. Hikoyada yaqqol ideal darajasidagi qahramon ko'rinmaydi.

Luqmon Bo'rixon o'zbek nasriga "sahroyi odamlar" obrazini olib kirdi. Chunki yozuvchining o'zi shu sahroyi odamlarning ichida tug'ilib voyaga yetgan. "Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasi qahramoni "janob Do'lanov" ruhshunos olim, "O'z ma'ruzalari bilan ahli Ovro'pa"ni lol qilgan katta olim. Hatto davlat mukofotlariga da'vogar olim bo'lsa-da, o'z millati tutumlaridan orlanishi, ozor chekishini ko'rsatish orqali palagidan uzilgan shaxs fojiasini badiiy adabiyotda muhrlaydi. Gap shundaki, insonning asl yuzi munosabatlar to'qnashganda ochiladi. Insonlar esa ana shunday lahzalarda toblanadi. Insonning o'zligiga intilishi uni ulug'lasa, aksincha, o'zligidan yiroqlashishi uni ruhiy azoblarga giriftor qiladi.

Do'lanov o'zining kundalik halovatini buzishni xohlamaydi. Shirinaxonni xafa qilishni istamaganidek, hamqishlog'ini ham ranjitmaslik yo'llarini xayolan qidiradi. Bu tuban fe'lli odamlar o'zligidan orlansalar-da, elning oldi bo'lishni do'ndirishini ochiqlaydi. Samad Ulashdan qutuldim deb, har qancha harakat qilmasin, suhbat so'nggidagi "qahramon" so'zining antonimini topishga bo'lgan intilish unga tinchlik bermaydi. Qiziqish ustunlik qilib, Ulashning telefon qilishini ichidan kutgan bo'lsa-da, telefon qilganida, xotini Shirinaga telefonni ko'tarib, o'zini obro'li qilib ko'rsatish uchun "silliq"qina bahona ham to'qib beradi. Biroq Ulash qayta qo'ng'iroq qilmaydi.

Hikoya qahramoni "janob Do'lanov" yuzidagi niqobni tushirib yubormaslikka qancha uringani sari uning tabiiy fitratidan asorat ham qolmagani bo'y ko'rsataveradi. Shahar Samadning insoniy qiyofasi, o'zligi, o'zagini yuvib yuborgan. "Cho'ldan kelgan tashvish", aslida, ramziy ishora. Qishloqdoshi Ulashning qo'ng'irog'i uning ichini-yu tashini ostun-ustun qilib tashlaydi. Muallif tashvish, aslida, "janob Do'lanov"ning o'zida, ruhiyatida ekanligiga ramziy ishora beradi. "Qahramon-qo'rqqoq", "qahramon-qochoq" kabi antonimni topish tashvishiga tushib qolgan katta olim kasalxonadan shifokor telefon qilganda ham o'zini tiyolmay "surbetlarcha" javobni bilishga harakat qiladi.

"Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyasida Luqmon Bo'rixonning kinoyaviy estetik ideali bo'y ko'rsatadi. Ya'ni yozuvchi "Janob Do'lanov" salbiy qiyofasida akslangan "milliy zaminidan uzilgan" va "xudbinlashgan, munofiqdashgan" qahramoni orqali "milliy tolerantlik" va "samimiylik", "odamiylik" kabi ideallarni asosiy estetik ideal sifatida namoyon qiladi. Luqmon Bo'rixon asarda "qahramon" so'zining antonimini izlab qiynalgan ruhshunos olim janob Do'lanovning ruhiy iztiroblarini berish orqali nim tabassum va kinoyaviy kulgi bilan "qahramon-nomard", "qahramon-qochoq", "qahramon-bo'shang" kabi umuman antonimik munosabatga kirishmaydigan so'zlar orqali kinoyaviy sahna yaratadi. Hikoya yakunida adibning Ulash agronom shoirning "qahramon-mehribon" so'zlarini katta kashfiyot sifatida berishi kinoyaviy estetik idealni yanada yorqinlashtirishga asos bo'lgan. Vaholanki, "qahramon-mehribon" so'zlari antonim juftlik emas. Yozuvchi hikoyada kinoyaviy uslubga xos so'z o'yini qilish orqali asarda o'zining kinoyaviy estetik idealini yarata olgan. Ya'ni adib har ikki asar qahramoni – ruhshunos olim Do'lanov va Ulash agronom-shoironing saviyasi pastligini ochib beradi. Bu beixtiyor A.Qahorning hajviy hikoyalaridan birida "Saltikov kattami? Shedin kattami?" mazmuni kechgan bahsni esga soladi.

Luqmon Bo'rixon badiiy uslubida kinoyaning o'ziga xos ko'rinishi aks etgan. Muallifning qay bir asarini olmang, unda kinoya va uning badiiy vositalari mahorat bilan qo'llangan. Xususan, yozuvchining "Jaziramadagi odamlar", "Imom Moturidiy" romanlarida ham luqmonona kinoya ko'zga tashlanadi. Biz mazkur o'rinda yozuvchining "Quyosh hali botmagan" qissasida namoyon bo'lgan kinoya va kinoyaviy munosabatga e'tibor qaratamiz. Qissa voqealari Norsoat tilidan hikoya qilinadi. Shuning uchun asarda Norsoatning Tanzilaga, Davronga kinoyaviy munosabati uning ichki monologida aks etgan. Qissada namoyon bo'lgan kinoya shaklini qahramonning jamiyatga kinoyaviy munosabati deb baholashimiz mumkin. Norsoat hayotida sodir bo'layotgan voqealar, keskin munosabatlar, do'sti bilan raqibga aylanish jarayonida o'z-o'zi bilan suhbatlashadi va har bir voqeaga faol munosabat bildirib, kinoyaviy pozitsiyani egallaydi. Masalan, Davron Tanziladan o'ttizta xat olganini eshitgach,

uning ichidan kinoya va istehzoga boy quyidagi gaplar quyilib keladi: “Tanzila chindan ham hali paxta yig‘im-terimidan qaytmagan ekan. Viloyat pedagog kadrlar tayyorlov texnikumi talabasi! Qanaqa pedagog... behayo, masxaraboz u! Soyga yetaklab borib, sug‘ormay qaytaradigan ayyor alvasti! Tamom, bu qiz endi menga begona, ko‘rmayin ham, kuymayin ham...” [Bo‘rixon, 2015: 137].

Yoki, mag‘lub deb e‘lon qilingan Davronning holati Norsoat nigohi bilan kinoyaviy kulgili fonda tasvirlanadi: “O‘rtanib o‘rimalayotgan polvon lampa chiroqlar yog‘dusi ostida hanuz tiz cho‘kkan ko‘yi haykalday qotib qoldi. Uning shu turishi kitoblardagi antik davr yunon-rum qahramonlari tasvirini eslatib yuborardi” [Bo‘rixon, 2015: 162].

Ayni paytda Norsoat o‘ziga o‘zi kinoyaviy pozitsiyada turadi. U Davronni g‘irromlik qilib yenggani uchun o‘zini iflos balchiqqa tushib qolgan odamday his qiladi: “Men o‘sha tanish muyulishda, o‘sha qayrag‘och yonida Tanzilani kutib turishni o‘ylagan edim. Ammo ich-ichimdagi allanedir bunga monelik qilardi. Go‘yo isqirt, iflos bir balchiqqa botib qolganman-u, bu ahvolda Tanzilaga ko‘rinishni istamadim. Qalbim, ong-shuurim bo‘m-bo‘sh bir tarzda uyga kirib bordim” [Bo‘rixon, 2015: 163].

Ko‘rinadiki, Luqmon Bo‘rixon qissada voqelik va insonning ruhiy tovlanishlarini tanqidiy, tahliliy taftish qilish uchun kinoya va uning vositalaridan unumli foydalangan. Xulosa shuki, yozuvchi o‘zining bir qator asarlarida kinoyaviy munosabatni (muallif kinoyasi va qahramon kinoyasi) estetik idealga aylantirgan.

Shu o‘rinda Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida ifodalangan kinoyaviy estetik idealni tahlil etamiz. Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev “Roman boshdan-oyoq kinoyaga yo‘g‘rilgan, ifodada piching yetakchilik qiladi” [Bo‘rixon, 2005: 323], deganida haq edi. Asarda ovloq cho‘l qo‘ynida yashayotgan cho‘lquvarlarning hayotiy va ruhiy kechinmalari kinoyaviy ohang bilan yoritiladi. Yozuvchi romanga javobi noma‘lum Toshbibi chechaning she‘riy topishmog‘ini epigraf sifatida keltiradi: “Bir o‘tim bor ajabgina, dumlari bor gajakkina. Hali kelsa ko‘rasiz, kula-kula o‘lasiz” [Bo‘rixon, 2005: 3]. Ushbu topishmoqda aytilganidek, kitobxon roman voqealarini goh kulib, goh iztirob chekib o‘qiydi. Asarning bosh qahramoni Lolaxon shahardan cho‘lga kelin bo‘lib tushadi. Lolaxonning achchiq qismati, ya‘ni yosh beva qolishi kitobxonni achintiradi. Ammo yozuvchi yosh beva qolgan Lola obraziga kinoyaviy modusdan yondashib, undan antipod sifatida qari beva obrazini yaratadi. Yosh kelinchakning turmush o‘rtog‘i O‘roq urushga ketib, o‘ligi temir tobutda keladi. Qishloqning kichik agronom shoiri Ulash aka O‘roqjon va Lolaxonning sevgi qissasi haqida doston yozadi. Yozuvchi sevgi va sadoqat timsollari bo‘lishi kerak bo‘lgan bu juftlikning hayoti va uni ideallashtirishga urinayotgan jamiyat haqida kinoyaviy ohang bilan yozadi: “Bu yirik asarim, – deya uzundan uzoq tushuntirishga tushib ketardi u, gurungiga quloq soluvchi biror kimsa topilib qolsa, – O‘roqjon haqida, Lolaxon haqida. Dostonimda yuksak insoniy tuyg‘ular, vatanparvarlik, jasorat, sevgi-sadoqat tarannum etiladi”.

Biroq sevgi-sadoqat tarannum etilgan doston agronom-shoirning hali taraddudi bitmay turib, el og‘zida allaqachon to‘qib-bichib tashlangan edi o‘sha kezlar.

O‘sha kezlar barcha goh mahzun, goh mamnun pichirlab, hayrat-u hayajon bilan Lolaxon haqida, endigina yigirma uch bahorni qarshilayotgan, agronom-shoir ta‘riflaganidek, qahramon jangchining buyuk bevasi haqida so‘zlar edi.

Emishki, o‘sha temir tobut keltirilgan mash‘um kun shaharlik kelin hushsiz yiqilib, naq bir hafta o‘ziga kelmagan emish. Shu-shu odamovi, hurkak, yig‘loqi emish. Shu-shu jin chalgandek o‘z-o‘zi bilan gaplashib yurar ekan.

“Siz yo‘qsiz, – dermish u hardamxayol-hardamxayol, – lekin pok ruhingiz hamisha yonimda, jonimda. Muqaddas sevgimizni hech kimga xo‘rlatmayman, tinch uxlang, azizim!”

Emishki, olis shahardan azadorlikka kelgan qudag‘ay ham qizining holi zabunini ko‘rib, yig‘labdi.

“Bolaginam, – degan emish qudag‘ay motamsaro Lolaxonni bir chekkaga tortib, – o‘lgan o‘lib ketdi. Sen o‘zingni o‘yla, hol-ahvolingga qara! Qani ilgarigi husning? Kampirga o‘xshab qopsan-ku, bolam!”

Lolaxon ilkis onasiga yuzlanib, ko‘zlaridan duv-duv yosh oqizib, qichqirib yuborgan emish:

“Tinch qo‘yinglar meni-i-i!!!”

Bu bo‘zlovni azador xonadonda g‘amgin ivirsib yurgan hamma eshitibdi. Keyinchalik ba‘zi birovlarining qasamga tayanib, guvohlik berishicha, Lolaxon kelinning ana shu qayg‘uli qichqirig‘i uch kun butun qishloq uzra jaranglab turgan emish...” [Bo‘rixon, 2005: 161-162]. Romandan maqsadli ravishda biroz uzun parcha oldik. Avvalo, yozuvchi “Qahramon jangchining buyuk bevasi” obrazini yaratishga urinayotgan jamiyat ustidan kinoya bilan kuladi. Shuning uchun ham badiiy matn kinoya, piching, istehzoli jumlar asosiga qurilgan. Yuqoridagi parcha ham she‘rdek o‘qiladi. Har bir xatboshidan so‘ng boshlangan yangi jumla oldingi jumladagi urg‘u berilgan so‘z bilan boshlanadi. Jumladan, birinchi xatboshi “sevgi-sadoqat tarannum etiladi” jumlasini tugasa, keyingi xatboshi “Biroq sevgi-sadoqat tarannum etilgan doston...” deb boshlanadi. Yoki ikkinchi xatboshining oxirgi so‘zi “... o‘sha kezlar” bilan tugallansa, keyingi uchinchi xatboshi “O‘sha kezlar...” deb boshlanadi. Xullas, L.Bo‘rixon badiiy matn strukturasi boshdan-oyoq kinoyaviy ohangga burkab, har bir jumla va har bir xatboshini jiddiy o‘ylab yozgan. Adib uslubiga xos soddalik va ravonlik o‘quvchiga zavq bag‘ishlaydi. 41-sovxo odamlari istaganidek, endi yigirma uch yoshni qarshilagan yosh beva Lolaxon ular istaganidek “vafo va sadoqat” timsoliga aylanmaydi. Lola “aqli sog‘lom kelinchak” bo‘lib, o‘zining shaxsiy hayotini qaytadan qurish uchun ketadi.

L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanini “2005-yilning eng yaxshi romani” deya baholagan adabiyotshunos S.Sodiq yozuvchining ushbu romani bilan Abdulla Oripovning “Ayol” she‘ri orasidagi ziddiyatlarga o‘z munosabatini shunday bildiradi: “Chindan ham, Luqmon Bo‘rixon romanda she‘rdan parchalar keltirib, ayol sadoqati masalasini boshqacha talqin qilishga uringandek ko‘rinadi. Romannavis shoir bilan mazkur muammo yuzasidan munozaraga kirishib, ayol sadoqati turli vaziyatlarda har xil namoyon bo‘lishi mumkinligiga ishonitirishga intilgan. Uning talqinidan anglashilishicha, ko‘pchilik yoki butun jamoatchilik haddan tashqari tazyiq o‘tkazganda, ayolning sevganiga munosabati sadoqat timsolidan ko‘ra kutilmagan salbiy oqibatlar bilan ham xotimalanishi mumkin. Yozuvchi talqiniga ko‘ra, sadoqat sun‘iy ravishda yaratilmasdan, ayol irodasining tabiiy mahsuli bo‘lgandagina katta ibrat va tarbiya qudrati kasb etadi. Faqat u o‘z g‘oyasiga san‘atkorlik iste‘dodi va roman vositalari orqali ishonitirishga muvaffaq bo‘lgan. O‘z navbatida, romandagi yechim “Ayol” she‘ridagi hayotbaxsh g‘oyaviy falsafaga mutlaqo soya solmaydi. She‘rda ham go‘yo romandagiga zid tuyuluvchi g‘oya o‘zgacha ta‘sirchan vositalar yordamida inson ruhiga zilzila soladigan badiiy haqiqat darajasiga ko‘tarilgan” [Sodiqov, 2008: 7]. Ko‘rinadiki, olim roman zamirida davr hayotidagi hayotiy haqiqat vositasida qalamga olingan badiiy niyat, ilgari surilgan g‘oya, muayyan qarama-qarshilik, ziddiyat yotishini to‘g‘ri izohlaydi. Bizningcha, romanda muallif o‘z hayot yo‘lida duch kelgan jamiyatdagi ziddiyatli holatni badiiy yo‘l bilan yechishga uringan.

Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev Lola fojiasiga shunday munosabat bildiradi: “Roman qahramoni Lolaxon – go‘zalligi va muloyimligini hisobga olmaganda, oddiygina ayol. Uning jismi va ruhida ham o‘zgalardagi singari xohish-istaklar bor. Lekin shaxsiy hayotning atay ijtimoiy maqomga ega qilinganligi, insonlar orasidagi munosabatlarning sun‘iy va mantiqqa muvofiq emasligi, beva qolgan yoshgina ayolning tabiiy ehtiyojlari hisobga olinmay, barchaning ko‘z o‘ngida sevgi va sadoqat timsoliga aylantirilgani uni halokatga olib boradi” [Yo‘ldoshev, 2005: 324]. Yana bir adabiyotshunos M.Qo‘chqorova yosh beva Lola qismatini shunday tahlil qiladi: “Sho‘ro hukumatining siyosiy o‘yinlaridan yana biri – “soxta qahramon yaratish” yosh, go‘zal Lolaning ham chekiga tushadi. 41-sovxo zliklar yosh bevadan vafodor

ayol timsolini yasashga harakat qilishadi. Yozuvchi yosh beva obraziga urush yillarida beva bo'lib, qarib-qartaygan kampir obrazini qarshi qo'yadi. Lola bu kampir timsolida o'zining kelajagini xuddi ko'rgandek bo'ladi va undan qo'rqib ketadi. Luqmon Bo'rixon yosh va qari bevalar timsolida sho'ro hukumatining "SOXTA QAHRAMON" yaratish siyosati ustidan kinoya qiladi" [Qo'chqorova, 2017: 71].

Xulosa

Luqmon Bo'rixon o'z nasrida kinoyaning o'ziga xos badiiy uslubini yaratgan kuchli ijodkordir. Adibning "Begimqul katta", "Cho'ldan kelgan tashvish" hikoyalari, "Quyosh hali botmagan" qissasi va "Jaziramadagi odamlar", romanlarida kinoya va uni namoyon etuvchi badiiy vositalar aks etadi, alalxusus luqmonona kinoya katta etik va estetik idealga evrilgan.

Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani adbiy tanqidchilar orasida bahs-munozaralarga sabab bo'ldi va ijobiy baholandi. Yozuvchi shu romangacha yaratgan hikoya va qissalaridagi kinoyaviy badiiy uslubni yanada mukammallashtirib, "Jaziramadagi odamlar"da kinoyaning o'tkir formasi sarkazm darajasiga chiqdi. Mazkur roman yangi o'zbek nasrida kinoyaviy badiiy uslubda ijod qilgan M.M. Do'st, E.A'zam, Sh.Bo'tayev singari adiblardan farqli ravishda o'ziga xos luqmonona kinoyaviy badiiy uslubni o'zida namoyon etdi. Adib nasrida kinoya bora-bora etik va estetik idealni ifodalash uchun muhim badiiy vositaga aylandi. Roman kinoya va uning badiiy vositalari, shuningdek, yozuvchining sho'ro davri voqealari va odamlariga o'ziga xos sarkazm bilan ifodalanishi jihatidan hali ko'plab tadqiqotlarga manba bo'ladi.

KAYNAKÇA

1. Vasilij, Pivoev (1982) Ironiya estetik kategoriya sifatida. // Filozofskiy nauki. – № 4 – c. 59; Elina, Kononenko (1982) Ironiyaning estetik diapazoni // estetik madaniyat va san'at muammosi. – c.114; Yuriy, Borev (1997) Estetika: 2 jildda - Smolensk,1-jild. S.187.
2. Mashxura, Sheraliyeva (2016), Hozirgi o'zbek nasridagi kinoya. Toshkent: Akademiya nashri, s. 224; Obitjon, Shofiyev (2019) Erkin Azam nasri badiiyati: kinoya va obraz. Toshkent: Qagnus Media, 2019. – s. 172; Marhabo, Qo'chqorova (2020) Hozirgi o'zbek nasrida badiiy shartlilik. Toshkent: Fan, s. 248.
3. Yigitali, Mahmudov (2017), Hikoya badiiyati: Luqman Bo'rixon hikoyalari misolida. Toshkent: Turon zamin ziyo, s.
4. Luqmon, Bo'rixon (2012), Begimqul katta / Tun qa'ridagi shu'la. Toshkent: Sharq, s. 100-101.
5. Luqman, Bo'rixon (2015), Qozoqboy Yo'ldoshev. Badiiy kamolot yo'li / Quyosh hali botmagan: qissalar va hikoyalar. Toshkent: "O'zbekiston", – c. 3.
6. Jon Galsuorsi (2010), Adabiyotda xarakter yaratish / Jahon adiblari adabiyot haqida. - Toshkent: Ma'naviyat, – c. 95.
7. Luqman, Bo'rixon (2005)Jaziramadagi odamlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – c. 336
8. Sodiq S. (2008) Toma-toma ko'l bo'lur (2005 yil romanlari) / Sodiqov S. Roman va tanqid. – Toshkent: Fan, – s. 24.
9. Luqman, Bo'rixon Jaziramadagi odamlar / Yo'ldoshev Q. Kinoyaga yo'g'rilgan umid. – Toshkent: Fan, – s. 324.
10. Marhabo, Qo'chqorova. (2017) "Jaziramadagi odamlar"romani badiiyatiga chizgilar // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, – №5, s. 71.

